

Umumtata'lim muassasalaridagi bolalar va o'smirlar uchun iste'molga tavsiya etiladigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari assortimenti

Go'sht va go'sht mahsulotlari:

- (I kategoriyali mol go'shti, buzoq go'shti, yog'siz qo'y go'shti (haftada 1-2-martadan ko'p emas), parranda go'shti, kurka, quyon go'shti;
- baliq
- tovuq tuxumlari omlet yoki qaynatilgan holda.

Sut va sut mahsulotlari:

- (sut (2,5%, 3,2%, 3,5% yog'lilik darajasi), pasterizatsiyalangan, sterillangan, quruq, quyultirilgan sut (toza va shakar aralashtirilgan holda), quyultirilib-pishirilgan sut;
- tvorog (yog'lilik darajasi 9% va 18%li; agar yog'lilik darajasi unchalik baland bo'lmasa — 0,5% li);
- o'tkir bo'lmagan turdagi pishloq (qattiq, yumshoq, eritilgan, ziravorlarsiz kolbasa turdagi);
- termik qayta ishlanganidan so'ng qaymoq (10%, 15%, 30% yog'lilik darajasi);
- kefir (qattiq);
- yogurtlar (termik ishlov berilmagan — tabiiy, sutli va qaymoqli turlari ma'qul);
- qizaribroq ivigan qatiq (ryajenka), qatiq, bifidok va boshqa sut mahsulotlari;
- qaymoq (yog'lilik darajasi 10%, 20% va 30%).

Oziq-ovqat yog'lari:

- saryog';
- o'simlik yog'i (kungaboqar, faqat dog'langan paxta yog'i);
- salatlarga, vinegretlar, seld balig'i, ikkinchi taomlar salat yog'i;
- margarin pishiriqlar uchun; qovirish uchun cheklangan (faqat oliy navlar);

Qandolatchilik mahsulotlari:

- konfetlar (zefir, qiyom, marmelad ma'qul), shokolad haftasiga bir martadan oshmasligi kerak;

- qotirilgan kulcha non (galeta), pishiriq, kreker, vafli, keks (ta'm beruvchi moddalarsiz);
- pishiriqlar, tortlar (uvalanadigan xamirli va biskvitli, kremsiz);
- qiyom, murabbo, povidlo, korxonada qadoqlangan asal;

Sabzavotlar:

- kartoshka, karam, gulkaram, sabzi, lavlagi, bodringlar, pomidorlar, qovoqcha (kabachki), kulchaqovoq (patisson), piyoz, chesnok (kichik maktab yoshidagi bolalar uchun cheklangan miqdorda), petrushka (kashnichsimon ko'kat), shivit, selderey (kashnichsimon oshko'k), tomat pastasi, tomat-pyure.

Mevalar:

- olma, nok, olxo'ri, uzum, va bananlar;
- har kimning iste'mol qila olish qobiliyatiga qarab sitrusli (apelsin, mandarin, limon);
- quritilgan mevalar;

Dukkaklilar:

- no'xat, loviya, soya, mosh.

Sharbat va ichimliklar:

- mahalliy tabiiy va import sharbatlar, ishlab chiqarilgan ichimliklar (oqartirilgan va quyqali), imkon qadar kichik qadoqda;
- konservantlarsiz va qo'shimcha moddalarsiz ishlab chiqarish turidagi vitaminli ichimliklar;
- kakao, choy;
- ichimlik suv.

Konservalar:

- go'shtli konserva;
- konserva ovqatlari (go'shtli suyuq ovqat (rassolnik), mol go'shtli karam sho'rva, mol go'shtli grechka kabi tabiiy mahsulotlar bo'lmaganda istisno tarzida);

- losos (qizil go'shtli baliq), sayra yog'da, qovurilgan skumbriya balig'i;
- sharbatlar, meva bo'laklari, baqlajon va qovoqcha ikrasi;
- sterillangan pomidor va bodringlar.
- non, yorma, makaron mahsulotlari — barcha turlari cheklanmagan miqdorda.